

O'QUVCHILARDA IRODA RIVOJLANISHINING O'ZBEKISTON OLIMLARI TOMONIDAN TADQIQ ETILGANLIK HOLATI

Qobilova Nasiba Ismatjon qizi, magistr
Jizzax davlat pedagogika universiteti

asliyatim@mail.ru

Annotasiya: Maqolada iroda psixologiyasi, maktab o'quvchilarida irodaning O'zbekiston olimlari tomonidan o'rganilganlik darajasi, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar mazmuni, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: maktab o'quvchilari, iroda psixologiyasi, tavakkalchilik, abuliyat, iroda akti, zamonaviy, jamiyat, shaxs, borliq, faoliyat.

Iroda kategoriyasi psixologiya fanida qadim zamonlardan buyon o'rganilib kelinadi, xuddi shu boisdan u haqida xilma-xil yondashuvlar hukm surib kelmoqda. Antik dunyodan to hozirgi davrgacha iroda kategoriyasidagi ta'riflar bir-biridan keskin farq qilishiga qaramasdan, ularda o'zining mohiyati jihatidan yaqinlik mavjudligini ta'kidlab o'tish joiz. Jamiyatni, shaxsni, borliqni aks ettirish, inson faoliyatini u yoki bu yo'nalishda tashkil qilish, muammolar yechimini topish yuzasidan aniq bir qarorga kelish, uni qaror toptirish jarayonida uchraydigan to'siq va qiyinchiliklarni yengish, odatda, harakatlar yordamida ro'yobga chiqadi.

Mamlakatimizda voyaga yetayotgan o'g'il-qizlarning ijtimoiy faolligini ta'minlashga, ularning tashabbuskorligini yuksaltirishga, tanqidiy tahlil, intizomlilik, vatanparvarlik, shaxsiy javobgarlik tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Bu borada yoshlarni o'zini o'zi tartibga solishi, boshqarishi, murakkab vaziyatlarda to'siqlarni bartaraf qilishda irodani rivojlantirishning imkoniyati, sub'ektlarda shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat hissini takomillashtirish, irodaviy sifatlarni barqarorlashtirish, samarali yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqish yo'lida izlanishlarni olib borish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston olimlari tomonidan iroda mavzusi XX asrning o'rtalariga kelib ilmiy psixologik tadqiqot sifatida o'rganila boshlandi. 1955-1970 yillar o'rtasida P.P.Zimin, P.I.Ivanov, V.A.Tokareva kabi yetuk olimlar yoshlarni kuchli iroda egasi sifatida tarbiyalash, iroda va uni rivojlantirish masalalari ustida tadqiqotlar olib bordilar. Yoshlarning irodaviy sifatlarni shakllantirishning ahamiyatini yoritib berdilar. Keying yillarda M.G.Davletshin, E.G.G'oziyev, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Z.Nishonova, A.Jabborov, N.Safoyev, Z.Ibodullayev va boshqa qator yetuk professor olimlar tomonidan yaratilgan darslik, o'quv qo'llanma, to'plam va monografiyalarda iroda va uning nerv

fiziologik asosi, irodaviy aktlar, shaxs xulq atvorida irodaning tarkib topishi masalalari to'g'risida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

I.Xayriyevning ham Iroda psixologiyasida yozgan monografiyasida insonning irodasiga doir masalalar, iroda va boshqa psixik jarayonlar, irodaning milliy mentalitet nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shaxsning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishi bo'yicha yana bir qancha tadqiqotlar borki ularda ham iroda psixologiyasiga doir qarashlar keng ochilgan. "Masalan:N.M.Mullaboyev o'z tadqiqotida tavakkalchilikning yosh va psixologik xususiyatlariga doir (o'smir va o'spirinlik davri misolida) muammolarni o'rgangan. Zero, shaxs faoliyatida irodaning nomoyon bo'lishida tavakkalchilik ham muhim o'rin tutadi

Bergan va'dasini ustidan chiqish, o'z so'zlariga javob bera olish ham irodaning qat'iyatlilik tarkibiga kiradi. Yoshlarni o'z o'zini boshqarish hislatlariga doir ma'lumotlar G.X.Sharafutdinovanning dissertatsiyasida tadqiqotlarida ham keltirib o'tilgan. O'zini boshqarish va nazorat kabi sifatlar ham irodaviylikning muhim tomonlari hisoblanadi. Bu sifatlarsiz irodani tasavvur qilib bo'lmaydi.

R.A.Abdurasulovning "O'quvchi shaxsini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining o'rni" nomli monografiyasida turli sport bilan shug'ullanuvchi yoshlarda iroda ham turlicha ekanligi, sport bilan shug'ullanuvchi yoshlarda, o'quvchilarda irodani shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. O'z o'zini boshqarish, o'z o'zini nazorat qilish, o'z so'zida turish, o'z so'zini ustidan chiqish, o'z irodasiga ishonish orqali o'zini ijobiy xulq normalariga bo'ysundirishga o'rgatish masalalar yechimiga oid yana bir qator tadqiqotlar amalga oshirilganki, bu izlanishlarning tub negizida, asosan, shaxs irodaviy sifatlarining kamol toptirish masalalari yotadi

Tajribalar natijasining ko'rsatishicha, irodaning individual-tipologik xususiyatlari va fenomenlari mavjud bo'lib, ular inson faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirishni ta'minlaydi. Turmushda iroda shaxs faoliyatining ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilmasidan iborat bo'lib, u o'zini o'zi boshqarish (regulyator) sifatida dastavval o'ziga, shaxsiy hissiyotiga va xatti-harakatlariga hukmronlik qilishda aks etuvchi psixologik hodisadir. Irodaning kuchini yoki zaifligini aks ettiruvchi holatlar uning individual-tipologik xususiyatlari va tafovutlarini namoyon qiladi. Psixologik atamalar mohiyatidan kelib chiqqan holda irodasi kuchli va irodasi zaif odamlar hamda ularning ijobiy (pozitiv) va salbiy (negativ) fazilatlarini, sifatlarini, xislatlarini, illatlarini to'g'risida mulohaza yuritildi.

Umumiy psixologiyada psixikadagi og'ish holatlari patapsixologiyani yuzaga keltirdi va buning natijasida yangi sohaning tadqiqot predmeti o'ziga xos o'rganish metodlari, psixokorreksiya ishlarini olib borishning psixologik printsiplari, qonuniyatlari, ta'sir o'tkazishning ratsional uslublari yaratilgan. Patapsixologiya sohasining ayrim muammolari iroda kategoriyasida ham uchrab turadi. Iroda faoliyati va aktida uchraydigan irodadagi sustlikning patologiyasi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular abuliya (abulia – yunoncha qat'iyatsizlik degan ma'noni anglatadi) va apraksiya (apraxia – yunoncha harakatsizlik ma'nosini bildiradi) terminlari bilan ifodalanadi. Abuliya – bu insondagi miya patologiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatga intilish

holatining mavjud emasligi, harakatlanish, harakat qilish, uni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish zarur ekanligini anglagan holda biror harakatni qila olmaslikdan iborat odamning ojizligidir. Masalan, shifokor ko'rsatmasiga rioya qilish zarur ekanligini to'g'ri fahmlagan abuliy kasali bilan shikastlangan bemor-patsient biror ish-amalni bajarishga o'zini mutlaqo yo'naltira olmaydi. Bemor psixoterapevtik muolajalar olgandan keyin asta-sekin o'zining oldingi sog'lomlik holatiga qaytadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. АПсихологик тренинг асослари. Ўқув кўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.
2. G`B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog`inov Oila psixologiyasi Toshkent-2015
3. Sattorova Gulnora Ikromovna Ilk O`spirinlarning irodaviy sifatlarining psixodiagnostikasi va psixokerreksiyasi PhD Dessertatsiya
4. R.A.Abdurasulov o`quvchi shaxsini shakllantirishda sport mashg`ulotlarining o`rni
5. Qobilova, N. (2023). IRODA RIVOJLANISHINING XORIJIY OLIMLAR TOMONIDAN O`RGANILGANLIGI HOLATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).
6. Qarshiboyeva, G., & Qobilova, N. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA IRODAVIY SIFATLARINI PSIXOLOG ZHIXATLARI. Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya jurnali , 2 (5).
7. Qarshiboyeva G.Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
8. Qarshiboyeva G. Психологик маслахат. Архив Научных Публикаций JSPI.
9. Qarshiboyeva, G. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. *Архив Научных Публикаций JSPI*.